

## INGLIZ TILI GAP TARKIBIDA PAYTNING IFODALANISHI

*Xolbekova Manzura Turdiyevna*

*Sirdaryo viloyati Xovos tumani 22-umumiy  
o'rta ta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ma'lumki, gap qurilmasida payt holini ifodalovchi sintaktik birliklar rang-barangdir. Jumladan, ingliz tili gap qurilmasida ishtirok etgan payt holini ifodalovchi birliklarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi usullarini aniqlash ham tarjima nazariyasida muhim rol o'ynaydi. Ta'kidlash joizki, tarjimashunos olimlar asosan matnning mazmuniga, stilistik omillarga ko'proq e'tibor qaratganlar, ammo bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilishdagrammatik shakllar tarjimasiga ham e'tibor qaratish foydadan xoli emas.

**Kalit so'zlar:** temporallik, sintaktik birlik, sintaksema, adverbial element.

### KIRISH

A.M.Muxin konsepsiyasiga asoslangan holda payt holini ifodalovchi sintaktik birliklarning differensial sintaktik- semantik belgisi temporallik atamasi bilan yuritiladi. Shunga ko'ra, temporallikni ifodalovchi sintaktik birliklarning ingliz tilidan badiiy matnda o'zbek tiliga tarjimada berilishini ko'ramiz.

Temporal sintaksemani ifodalovchi birliklar gap qurilmasida kesimga bog'lanib, unda ifodalangan ish-harakatning tugallanganligini, davomiyligini, chegaralanganligini, nutq jarayonidan keyin bajarilishini, ish-harakatning bajarilishida ketma-ketlikni ifodalashi mumkin.

### ASOSIY QISM

Ingliz va o'zbek tillarida temporallik turlicha ifodalanishi mumkin va tarjimada ham har xil berilishi mumkin:

1. Adverbial elementlar bilan ifodalanganda o'zbek tiliga quyidagicha beriladi:

a) yet hali – bu kesimning inkor shaklida uchraydi:

*You haven't reached it yet*

*Siz uchun hali o'zgarish bo'lgani yo'q*

b) never hech qachon:

*You'll never take me seriously, willyou?*

*Siz menga hech qachon jiddiy muomala qilmaysiz?*

c) now hozir:

*He sat now in his legation room fretting at a telegram to decode.*

*Payl hozir o'z missiyasida o'tirib, sabrsizlik bilan telegrammani rasshifrovka qilayotgandir.*

d) still hamon:

*She is waiting for him still.*

*Hamon uni kutayapti.*

e) ever bir paytlar:

*Were you ever in love with her?*

*Sen bir paytlar unga oshiqbo'lganmiding?*

f) once bir vaqtlar:

*Robert Cohn was once Middleweight boxing champion of Prinseton*

*Robert Kon bir vaqtlar o'rta vaznda Prinston Universitetining chempioni bo'lgandi.*

g) just bir paytlari:

*It's just like the Fratellinis used to be*

*Bir paytlari xuddi Fratellini sirkchilari aytganidek*

already allaqachon:

*Mike was already in bed.*

*Mayk allaqachon yotgandi .*

h) always paytida:

*There was always a breeze even in the heat of the day.*

*Kunning hatto eng jazirama paytidaham nuqul shabada esib turar edi.*

i) then o'zbek tiliga keyin, shu payt, o'shanda, bu paytda kabilar yordamida tarjima qilinadi:

*Then they pulled up the door of the cage.*

*Keyin qafasning eshigini ochishdi.*

Adverbial elementlardan tashqari ingliz tilida turlicha predloglar bilan hafta kun nomlari, oylar, yillar, ovqatlanish paytini ifodalovchi leksik birliklar birikib kelib, temporallikni ifodalasa, o'zbek tilidatemporallikni ifodalovchi otlar, sifatdoshlar, har xil kelishik qo'shimchalari yordamida tarjima qilinadi.

Shu borada ta'kidlash joizki, "...predloglarning alohida so'z turkumi sifatida o'ziga xos xususiyatlari sintaktik darajada ko'zga tashlanadi. Ular sintaktik konstruksiya tarkibida alohida so'z sifatida aniq ajralib turadi va birikmaning markazi hamda tobelanuvchi komponentlari orasida tobe aloqani ifodalash vazifasini bajaradi" [Sayfullayev,2014,21]. German tilshunos- ligida, jumladan, ingliz tili misolida predlog bajaradigan funksiyani otning kelishik formasi bilan bog'lamaslik lozim. Gap qurilmasida predloglarni mazmun jihatidan aniqlashda, ularning qanday otlar bilan birikib kelishi orqali aniqlash mumkin. Ushbu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur ishimizda aynan temporallikni ifodalovchi predlogli birikmalarga e'tibor qaratib, ularning o'zbek tiliga tarjimasini haqida to'xtalamiz.

a) after + ot ot+dan + keyin:

*After breakfast Bill and I were sitting warming in the sun on a bench cut in front of the inn and talking it over*

*Nonushtadan keyin Bill bilan mehmonxona ro'parasidagi xarakda o'zimizni o'ftobda toblab o'tirarkanmiz, yuzaga kelgan vaziyatni muhokama qildik.*

b) ot + before bundan + son

oldin:

*He had come in with me an hour before.*

*U bundan bir soat oldin men bilan birga qaytgandi.*

Temporallikni ifodalovchi sintaktik birliklar sodda gaplar tarkibida ishtirok etganda, aynan o'sha gapning kesimi ifodalagan ish-harakatning bajarilish paytini anglatadi, ya'ni so'zlovchi o'zining suhbatdoshiga ish-harakatning bajarilganligi, bajarilayotganini, bajarish paytini aniqifodalash uchun gapda ishtirok etadi. Demak, sodda gap qurilmasida temporallik elementlarning ifodalanishi adverbial birliklaryet – hali, never – hech qachon, now – hozir, still – hamon, ever – bir paytlar, once – bir vaqtlar, just – bir paytlari, already – allaqachon, always – paytida, hamisha, then – keyin, shu payt, o'shanda, bu paytda, sometimes – ba'zan, at once – darrov, during – bu paytda, mobaynida, soon now – ko'pi ketib ozi qolmoq kabilar yordamida ifodalansa, temporallikni ifodalovchi predlogli birikmalar after + ot – ot+dan keyin, ot + before – bundan + son + oldin, before + ot – ot+dan oldin, at + ot – ot + sifatdosh+da, ot + son+da, for + son + ot – son + ot + davomida, in va by predloglari esa vaqtni ifodalovchi leksik birliklar bilan birikib kelishi mumkin. Undan tashqari yesterday, tomorrow, tonight, day, hafta kunlarini ifodalovchi leksik birliklar one, all, next, last, some, each kabilar bilan birikib, o'zbek tiliga son + ot, ot + bo'yi, o'sha + ot, har + ot tarjima qilinadi.

Temporallik ergashgan qo'shma gaplar tarkibida qaralganda, payt ergash gaplar bosh gapga when, while, after, as, whattime kabi bog'lovchilar yordamida berilib bosh gapda ish-harakat bilan payt ergash gapdagi ish-harakatini bir-biri bilan taqqoslab, kesimlar ifodalagan ish-harakatning bajarilishiga aniqlik kiritadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sayfullayev A. Predloglarni kodifikatsiyalashning kontekstual asoslari. - Toshkent: Fan, 2014. -144 b.
2. Abdullayeva S.Y. Payt ergash gapli qo'shma gaplar sintaksisi. (Hozirgi zamon nemis tilimateriali asosida). Nomzod-diss. avtoref. -Samarqand: 2009. -26 b.
3. Heminguey E. Alvido, qurol! –Toshkent: 1986. -378 b.
4. Hemingway E. A Farewell to Arms. - Leningrad. 1971. -263 p.
5. Мухин А.М. Функциональный синтаксис. Функциональная лексикология. Функциональная морфология. - Санкт-Петербург, СПб, 2007. -198 с.